



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Shukur Xolmirzayev asarlarida tabiat obrazining badiiy ifodasi

Ulashova Muxlisa

Termiz davlat pedagogika institute

2- kurs magistri.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev ijodida tabiat obrazining badiiy ifodasi, uning estetik va falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Adib asarlarida tabiat shunchaki voqelik fonini yaratish vositasi emas, balki inson qalbining holatini, ruhiy kechinmalarini, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga munosabatini ifodalovchi ramziy unsur sifatida namoyon bo'ladi. Shukur Xolmirzayev hikoya va qissalarida tabiat manzaralari orqali inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, uyg'unlik va mas'uliyat masalalarini yoritadi.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, tabiat obrazi, badiiy ifoda, hikoya, qissa, ramz, inson va tabiat munosabati, ekologik tafakkur, estetik qarash, falsafiy mazmun.

Аннотация: В статье рассматривается художественное воплощение образа природы в творчестве выдающегося узбекского писателя Шукура Холмирзаева, а также эстетическая и философская роль природы в его произведениях. В произведениях писателя природа выступает не просто фоном событий, а становится живым участником повествования, отражающим внутренний мир человека, его нравственные поиски и духовное состояние.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, образ природы, художественное выражение, рассказ, повесть, символизм, человек и природа, экологическое сознание, эстетика, философская глубина.

Abstract: This article explores the artistic representation of nature in the works of Shukur Xolmirzaev, one of the prominent figures of modern Uzbek literature, focusing on the aesthetic, symbolic, and philosophical dimensions of natural imagery. In his prose, nature is not merely a background element but a powerful means of expressing human emotions, moral values, and spiritual states.

Keywords: Shukur Xolmirzaev, image of nature, artistic depiction, short story, novella, symbolism, human-nature relationship, ecological thinking, aesthetics, philosophical meaning.

Adabiyot inson va tabiat o'rtasidagi abadiy bog'liqlikni eng chuqur aks ettiruvchi san'at turi hisoblanadi. Inson o'z his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini ko'pincha tabiat manzaralari orqali ifoda etadi. Sharq va G'arb adabiyotida tabiatning talqini turlicha bo'lib, biri ruhiy-ma'naviy uyg'unlikka urg'u berar ekan, ikkinchisi realizm va romantizm yo'nalishlarida inson



hissiyotlarini aks ettiradi. Shukur Xolmirzayev asalarida tabiat va inson munosabatlarining yorqin ifodasini kuzatish mumkin.

Shukur Xolmirzayev ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar va ilmiy maqolalar anchagina. Xususan, H. Karimov tomonidan yozilgan «Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti» risolasi hamda akademik B. Nazarovning «Shukur Xolmirzayev» nomli asari adibning badiiy dunyosini tahlil etishga qaratilgan. Shuningdek, yozuvchining hikoyalari haqida U. Normatov, S. Mamajonov, Q. Yo'ldoshev, H. Boltaboev, O. Otaxonov, R. Qo'chqorov kabi olimlarning maqolalari chop etilgan. Adibning qissalari yuzasidan M. Qo'shjonov, A. Rasulov, M. Olimov, romanlari haqida esa U. Normatov, O. Tog'ayev, I. G'afurov, S. Sodiqov singari adabiyotshunoslar tadqiqot olib borganlar. Shu bilan birga, bu izlanishlarda asosan yozuvchining ayrim ijodiy yo'nalishlari yoritilgan bo'lib, uning ijodiy merosi to'liq qamrab olinmagan.

Shukur Xolmirzayev (1940–2005) o'zbek adabiyotining eng o'ziga xos hikoyanavislaridan biridir. U Boysunning tog'li hududida tug'ilib o'sgan bo'lib, bu muhit uning asarlaridagi tabiat manzaralariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shu bois ham yozuvchi hayot, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni chuqur his etadi.

Tanqidchi U. Normatov «Zaminda yashaymiz, zaminni o'ylaymiz» maqolasida Sh. Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: «Inson va tabiat munosabati Sh. Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so'nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...». Shu nuqtai nazardan yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi hikoyalarini ko'zdan kechirsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo'lishini kuzatamiz.

Chunonchi, «Kulgan bilan kuldirgan» (1972) hikoyasida Shukur Xolmirzayev vatan go'zalligi, boyligi, umuman, tabiatga befarq bo'lmagan, uni sevuvchi kishilarni tashvishga solayotgan - tabiat boyliklarini asrash masalasini ilgari suradi va bu masalaning mohiyatini oddiy bir voqeya tasviri orqali ko'rsatadi.

«Kulgan bilan kuldirgan» hikoyasida bosh qahramonning ichki dunyosi, uning tabiatga mehr va mas'uliyat bilan qarashi chuqur ochib beriladi. U inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni qadrlaydi, har bir jonzot hayotini muqaddas deb biladi. Qahramonning bir-ikki qush emas, balki butun tog'dagi qushlarni sovuqdan asrash uchun qayg'urishi uning insoniy fazilatlarini, mehr-oqibatini ko'rsatadi. Shu orqali yozuvchi tabiatni asrash, unga beparvo bo'lmaslik g'oyasini ilgari suradi.



«Jarga uchgan odam» hikoyasida esa bu mavzu yanada keskinroq dramatik tus oladi. Tabiatni sevisish haqida film suratga olishni niyat qilgan kinorejissyorning o'zi tabiatga xiyonat qiladi — u ayiqni otib, ikki bolasini yetim qoldiradi. Bu holat orqali yozuvchi so'z bilan emas, amalda tabiatga sadoqat ko'rsatish kerakligini uqtiradi. Asardagi voqealar shunchaki bir sarguzasht emas, balki insonning axloqiy mas'uliyati, ikkiyuzlamachiligi, tabiat oldidagi burchini unutish oqibatlarini haqida chuqur falsafiy o'y uyg'otadi. Natijada rejissyor rasmiy jazoga emas, balki hayotning o'z adolatiga — oddiy bir tabiat jonkuyarining qahriga duchor bo'ladi. Shu tarzda yozuvchi inson va tabiat o'rtasidagi nozik rishtalarni, uni uzish qanday og'ir oqibatlarga olib kelishini mahorat bilan yoritadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabat badiiy-psixologik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar qayd etishicha, yozuvchi tabiat orqali inson ruhining ichki harakatini ko'rsatadi. Masalan, "Jarga uchgan odam" hikoyasida jarlik, shamol va cho'l manzarasi insonning ichki iztiroblarini ifodalaydi.

Yozuvchining asarlarida yomg'ir, tog', bulut kabi obrazlar ramziy ma'noga ega: yomg'ir – poklanish, tog' – matonat, bulut – iztirob ramzi. Bu ramzlar yozuvchi uslubida Sharqona estetik tafakkur bilan G'arbona realizm uyg'unligining yorqin ko'rinishidir.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev ijodida tabiat obrazining badiiy ifodasi Sharqona ruhiyat va G'arbona estetik tahlil uslublarining uyg'unlashgan shaklidir. Uning asarlarida tabiat unsurlari inson kechinmalarining ramzi, ruhiy voqealarning metaforik ifodasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Cyberleninka — Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy-psixologik talqini. <https://cyberleninka.ru/article/n/shukur-xolmirzayev-hikoyalarida-tabiat-va-inson-munosabatlarining-badiiy-psixologik-talqin>
2. Universal Publishings Journal — Sh.Xolmirzayev ijodining psixologik tahlili. <https://universalpublishings.com>
3. Camuf.uz — Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat muhofazasi masalasi. <https://www.camuf.uz/journals/1/shukur-xolmirzayev-hikoyalarida-tabiat-muhofazasi>
4. . N. Tavalдиеva. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini. www.ares.uz 2020